



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI
(Kunduzgi va sirtqi bo'lim uchun)**

**«Chizmachilik», «Rangtasvir» va «Qalamtasvir»
fanlari**

**5110800 – «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi»
bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun**

TOSHKENT – 2019

Dastur Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2019 yil 29 iyundagi 11 - sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

TDPU "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri,
dotsent R.Sh.Xalilov

TDPU «Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi» kafedrasini mudiri, dotsent v/b N.Tashimov

TDPU "Kasb ta'limi" fakulteti dekani,
pedagogika fanlari doktori, dotsent Ya.U.Ismadiyarov

Taqrizchilar:

TAQI "Qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" kafedrasini dotsenti R.Z.Bobomurodov

TDPU "Muhandislik grafikasi va uni o'qitish metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi P.A.Adilov

I. Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oily ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2017 yil 16 noyabrdagi PQ-3389-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 261-son qaroriga muvofiq ushbu dastur ishlab chiqilgan.

"5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablaridagi tasviriy san'at va chizmachilik fanlari dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. 5110800 – «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san'at va muhandislik grafikasining asosi bo'lgan qalamtasvir, rangtasvir va chizmachilik fanlaridan amaliy ish bajarib, o'zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

II. Fanning maqsadi va vazifalari

5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning chizmachilik va tasviriy san'at sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy, grafik ishlar bajaradilar:

1. Chizmachilik. Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Tarkibida tutashma elementlari mavjud bo'lgan detal chizmasini chizish, buyumlarning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyalarni topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

2.Rangtasvir. Tasvirlanadigan buyumlar kompozitsiyasi, faktura, havo perspektivasi va rangshunoslik qonuniyatlarini talab etuvchi uy-ro'zg'or buyumlari, gips geometrik shakllar, rozetkalar meva va sabzavotlardan tashkil topgan rangli fondagi natyurmort o'ziga qarab suvbo'yoq (akvarel)da bajariladi.

3.Qalamtasvir. Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, kuzatish perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar sidirg'a mato fonida o'ziga qarab tasviri qalamda bajariladi.

III. Abiturient bilimiga qo'yiladigan talablar

1. Abiturientdan chizmachilik fanidan tutashma markazini, tutashma nuqtalarini to'g'ri topishi, tutashmani silliq ravon tutashtirishi, berilgan ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirishi, masshtabni to'g'ri tanlashi, yetishmovchi proyeksiyani to'g'ri topishi, qirqimlarni to'g'ri bajarishi, aksonometrik proyeksiyani qirqimlari bilan to'g'ri bajara olishi, chizmalarda chiziq turlariga, o'lchamlar

qo'yishda qoidaga rioya qilishi, chizmalarni qog'ozga to'g'ri joylashtira bilishi va ishni sifatli bajarishi talab etiladi.

2. Abiturientdan rangtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirishi, ufq chizig'i, predmetlarning hajmi, o'zaro nisbatini to'g'ri topishi, soya, yorug', refleks to'g'ri aks ettira bilishi, perspektiva qonuniyatlariga rioya qilishi, akvarel bo'yog'i texnikasidan, havo perspektivasidan to'g'ri foydalana bilishi, predmetlarda rang munosabatlarini to'g'ri topishi hamda buyumlarning fakturasini (metall, sopol, chinni mato va hokazolar) to'g'ri tasvirlashi talab etiladi.

3. Abiturientdan qalamtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirishi, ufq chizig'i, buyumlarning o'zaro nisbatini, buyumlarning tayanch nuqtalarini to'g'ri topishi, narsalar tekisligini to'g'ri aniqlay olishi, naturadagi buyum hajmlarini to'g'ri aks ettira bilishi, perspektiva qonuniyatlariga rioya qilishi, buyumlardagi soya va yorug'larni to'g'ri aniqlay olishi hamda buyumlarning fakturasini (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topishi talab etiladi.

Abiturient har bir fandan jadval bo'yicha belgilangan kunlarda 4 akademik soat vaqt davomida grafik ish bajaradi. Har uchchala fan bo'yicha bajariladigan ish qog'ozining o'lchami A3 formatda bo'ladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: chizmachilikdan 13 ta savol qo'yiladi, rangtasvirdan bajarilgan har bir ishga 10 ta savol va qalamtasvir bajarilgan har bir ishga 11 ta savol va bu savollarga sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo'yadilar. Har bir fan bo'yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

Mazkur yo'nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo'yiladigan maksimal ball - 189,0 ni tashkil etadi va predmetlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Chizmachilik - 93,0 ball

Rangtasvir - 48,0 ball

Qalamtasvir - 48,0 ball

IV. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. Chizmachilik

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Tutashma markazi to'g'ri topilgan	8,0 gacha
2	Tutashma nuqtalari to'g'ri topilgan	8,0 gacha
3	Tutashma silliq ravon tutashtirilgan	7,0 gacha
4	Tutashma bajarishdagi geometrik yasashlarning to'g'ri tatbiq qilinganligi va u chizmada saqlanganligi	7,0 gacha
5	Berilgan ikki proyeksiya to'g'ri ko'chirilgan, masshtab to'g'ri tanlangan	7,0 gacha
6	Yetishmovchi proyeksiya to'g'ri topilgan	7,0 gacha
7	Qirqimlar to'g'ri bajarilgan	7,0 gacha
8	Aksonometrik proyeksiya to'g'ri boshlangan	7,0 gacha
9	Aksonometrik proyeksiya tugallangan	7,0 gacha
10	Aksonometriyada qirqim to'g'ri bajarilgan	7,0 gacha
11	Chizmalarda chiziq turlariga rioya qilingan	7,0 gacha

12	O'Ichamlar qo'yishda qoidaga rioya qilingan	7,0 gacha
13	Chizmalar chizma qog'oziga to'g'ri joylashtirilgan va sifatli bajarilgan	7,0 gacha

Chizmachilik bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball - 93,0 ball

2. Rangtasvir

No	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan	4,0 gacha
2	Ufq chizig'i to'g'ri topilgan	4,0 gacha
3	Predmetlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan	5,0 gacha
4	Perspektiva qonuniga rioya qilingan	5,0 gacha
5	Soya, yorug', refleks to'g'ri topilgan	5,0 gacha
6	Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanilgan	5,0 gacha
7	Havo perspektivasidan to'g'ri foydalanilgan	5,0 gacha
8	Predmetlarda rang munosabatlarini to'g'ri topgan	5,0 gacha
9	Buyumlarning fakturasi (metall, sopol, chinni mato va hokazolar) to'g'ri tasvirlangan	5,0 gacha
10	Abituriyent oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq bajargan	5,0 gacha

Rangtasvir bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball - 48,0 ball

3. Qalamtasvir

No	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan	4,0 gacha
2	Ufq chizig'i to'g'ri topilgan	4,0 gacha
3	Buyumlarning o'zaro nisbati to'g'ri topilgan	5,0 gacha
4	Buyumlarning tayanch nuqtalari to'g'ri topilgan	5,0 gacha
5	Narsalarning tekisligi to'g'ri aniqlangan	5,0 gacha
6	Naturadagi buyum hajmlari to'g'ri aks ettirilgan	5,0 gacha
7	Perspektiva qonuniyatlariga to'g'ri rioya qilingan	4,0 gacha
8	Buyumlardagi soya va yorug'lar to'g'ri aniqlangan	4,0 gacha
9	Buyumlarning fakturasi (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topilgan	4,0 gacha
10	Ishni umumlashtirilganligi	4,0 gacha
11	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgan	4,0 gacha

Qalamtasvir bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballarning umumiy miqdori - 48,0 ball

Umumiy ballar miqdori - 189,0 ball

V. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga xujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda 4 akademik soat (3 astronomik soat) vaqt davomida chizmachilik fanidan grafik ish, rangtasvir va qalamtasvir fanlaridan natyurmort qo'yilmasini bajaradilar. Ushbu ta'lim yo'nalishda kasbiy (ijodiy) rangtasvir va qalamtasvir fanlaridan imtihonlar 8³⁰ dan 11³⁰ gacha va 14⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha davom etadi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar molbert va planshetlar bilan jihozlangan tasviriy san'at va chizmachilik xonalarida o'tkaziladi.

1. Chizmachilik. Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Tarkibida tutashma elementlari mavjud bo'lgan detal chizmasini chizish, buyumlarning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyalarni topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

2. Rangtasvir. Tasvirlanadigan buyumlar kompozitsiyasi, faktura, havo perspektivasi va rangshunoslik qonuniyatlarini talab etuvchi uy-ro'zg'or buyumlari, gips geometrik shakllar, rozetkalar meva va sabzavotlardan tashkil topgan rangli fondagi natyurmort o'ziga qarab suvbo'yoq (akvarel)da bajariladi.

3. Qalamtasvir. Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, kuzatish perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar sidirg'a mato fonida o'ziga qarab tasviri qalamda bajariladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: chizmachilikdan 13 ta savol qo'yiladi, rangtasvirdan 10 ta va qalamtasvirdan bajarilgan har bir ishga 11 ta savol, va bu savollarga sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab chizmachilik fanidan - ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, 0 balldan 7 ballgacha, maksimal 6 ball bo'lsa 0 balldan 6 ballgacha. Rangtasvir fanidan ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa 0 balldan 5 ballgacha va qalamtasvir fani bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, 0 balldan 5 ballgacha, maksimal 4 ball bo'lsa 0 balldan 4 ballgacha.

Har bir fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'nalishiga kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor - o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

VI. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.